

## “JAHONGA BO’Y KO’RSATAYOTGAN YOSHLAR”

**Dusmurodov Elbek**

*SamDU Kattaqo’rg’on filiali talabasi*

**Annotatsiya:** *Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda sport sohasiga davlatimiz tomonidan keng ko’lamdagi imkoniyat hamda shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ushbu maqolada mana shunday imkoniyatlardan, sharoitlardan tom ma’noda “unumli” foydalanib O’zbekiston bayrog’ini yuksakka ko’tarayotgan, qisqa qilib aytganda, Jahonga bo’y ko’rsatayotgan yoshlarimiz haqida so’z boradi.*

**Annotation:** *As we all know, today our state is creating a wide range of opportunities and conditions for the sports sector. This article talks about our youth who are using such opportunities and conditions to raise the flag of Uzbekistan high, in short, showing it to the world.*

**Аннотация:** *Как мы все знаем, сегодня наше государство создает широкий спектр возможностей и условий для спортивной сферы. В этой статье рассказывается о нашей молодежи, которая использует такие возможности и условия, чтобы высоко поднять флаг Узбекистана, словом, показать его миру.*

**Kalit so’zlar:** *arena, imkoniyat, chempion, medal.*

Mustaqillik yillarida sport sohasida sezilarli islohotlar bo’ldi. Jumladan, “Bolalar sportini rivojlantirish jamg’armasi” tashkil topdi. Bu jamg’arma doirasida minglab maktablarning sport zallari rekonstruksiya qilindi hamda sport anjomlari bilan to’liq ta’minlandi. Bundan tashqari birgina shu jamg’armasi tomonidan ko’plab musobaqalar tashkil qilindi. Bundan tashqari “Barkamol avlod”, “Unversiada” musobaqalari o’tkazildi. Shunday yaratilayotgan bu kabi islohotlardan foydalangan minglab sportchilarimiz O’zbekistonni dunyoga tanitdi. Jumladan, Ruslan Chagayev, Iroda To’laganova, Timur To’lyakov, Muhammadqodir Abduraulov kabilarni bunga yaqqol misol qilishimiz mumkin.

2010 yili Singapurda bo’lib o’tgan I o’smirlar Olimpiya o’yinlarida 21 nafar hamyurtimiz ishtirok etgan bo’lsa, 2014 yilda Nankinda 28 nafar o’zbekistonlik sportchi g’oliblik uchun kurash olib borgandi. Bu safar esa Argentinaga 36 nafar yoshlarimiz litsenziya qo’lga kiritishgan edi. Xalqaro havaskor bokschilar assotsiasiyasi (AIBA) dan xushxabar keldi. Gap shundaki qizlar o’rtasida boks bo’yicha 51 kilogramm vazn toifasida Xursanoy Xolmatova ham Buenos-Ayres Olimpiadasiga Litsenziya olibdi. Demak III o’smirlar Olimpiya o’yinlarida O’zbekiston delegatsiyasi 37 nafar sportchi bilan ishtirok etadi.

Biz Buenos-Ayresda medallar soni va sifati bo’yicha ham natijalarni yaxshilash niyatidamiz. Argentina arenalarida o’zini har tomonlama ko’rsatadigan sportchilarimiz nasib qilsa yana 2 yildan so’ng Tokio 2020 Olimpiya o’yinlarida yurtimiz sharafini himoya qilish imkoniga ega bo’ladi. To’rt yillik ichida biz olib borayotgan ishlarning barchasi kunchiqar yurtda tashkil etiladigan XXXII yozgi Olimpiya o’yinlarida munosib ishtirok etish,

natijalarni yanada yaxshilash, jonajon diyorimizni butun dunyoga mashhur qilish, oltin va kumush medallar bilan biz uchun duoda bo'lib turgan xalqimiz va Prezidentimizni .xursand qilishga qaratilgan edi.

Bugungi kunda ham qator yoshlarimiz o'zini sport sohasida mahoratlarimi namoyish etib kelmoqda. Albatta, ularning erishgan yutuqlari tahsinga sazavordir. Ayniqsa 2017- yil Braziliyaning "Rio de- Janerio" shahrida o'tkazilgan Jahon chempionatida ham boks sport turi doirasida arzirli natija qayd etildi. Bu sport ustalarimiz: Bektemir Meliqo'ziyev, Bahodir Jalolov, Hasanboy Do'smatov, Fazliddin G'oyibnazarov, Shahram G'iyosov. Bu natijaga erishish , albatta , oson emas. Bu natijalarning ortida katta islohotlar va mashaqaatli mehnat yotibdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda Birinchi Prezidentimizning so'zlarini keltirish joizdir: "Hech narsa mamlakatni sportchilik dunyoga tez tanita olmaydi". Bu fikrlarini inkor etib bo'lmaydi, chunki bular natijalar bilan o'z isbotini topdi, albatta. Bu sportchilarimizning g'alabalarini ko'rib birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ham ommaviy axborot vositalariga bergan interviularida ham o'zining behad suyunganligini aytgan edilar. Albatta, bu O'zbekistonimiz uchun ham chinakam faxr edi.

Bugungi kunning chinakam qaharmonlari sifatida Xitoy davlatida o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida O'zbekiston sharafini himoya qilgan sportchilarimizni aytishimiz mumkin. O'zbekiston terma jamoasi Osiyo o'yinlarini 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza — jami 71 ta medal bilan beshinchi o'rinda yakunladi.

23-sentabr — 8-oktabr kunlari Xitoyning Xanchjou shahrida o'tkazilayotgan XIX Osiyo o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 71 ta medalni qo'lga kiritdi.

Terma jamoa 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza medali bilan 45 ga yaqin davlat orasida beshinchi o'rinni egalladi. Xitoy 383 medal bilan birinchi o'rinda, Yaponiya ikkinchi , Janubiy Koreya uchinchi, Hindiston esa to'rtinchi o'rinda. Shu qatorda yana shuni ham qo'shimcha qilish kerakki, Nigina O'ktamova, Bahodir Jalolov , A.Halakov kabi sportchilarimiz Parijda bo'lib o'tadigan Osiyo o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritdilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonni O'zbekiston qiladiganlar yoshlardir. Bu borada birlashib yuksaklikka harakat qilish kerak . Sport – sog'lik garovi. Sog'lom farzandlar yurt tayanchidir. Zero:" Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur, Qudratli el nasli bo'lgay bardavom".

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."O'zbekiston iftixorlari" kitobi
2. kun.uz sayti
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)